

9-sinf
Adabiyot
CHSB 1
2-variant

1. (B – 2,5) Ogahiy ijodiga xos ma'lumotlarni aniqlang.

- 1) Ogahiy miroblik ishlari bilan safarda yurganida tasodif tufayli oyog'i qattiq shikastlanadi va hali yigit yoshidayoq to'shakka bog'lanib qoladi.
- 2) "Zubdat ut-tavorix" ("Tarixlar qaymog'i"), "Jome ul-voqeoti sultoniyy" ("Sultonlik voqealarining yig'indisi") kabi tarixiy asarlar muallifi.
- 3) Uning bizgacha ikki hikoyalar to'plami – Temur Sultonga bag'ishlangan "Miftoh ul-adl" („Adolat ka-liti“), Kistan Qaro Odilga bag'ishlangan "Gulzor" asarlari yetib kelgan.
- 4) Adib Buxoroda Abduxoliq G'ijduvoniyy asos solgan mashhur "xojagon" silsilasining ko'zga ko'ringan vakillaridan edi.

- A) 1, 2
B) 1, 3, 4
C) 2, 3, 4
D) 3, 4

2. (B – 2,5) Xoja hayoti va ijodiga oid ma'lumotlarni aniqlang.

- 1) Xojaning o'g'li Hasanxoja Nisoriy "Muzakkiri ahbob" asarida otasining qilgan ishlari, hayot tarzi, axloq-sajiyasi haqida qimmatli ma'lumotlar qoldirgan.
- 2) Xojaning "Maqsad ul-atvor" nomli bir dostoni ham yetib kelgan. Bu Jonibek Sulton nomiga bitilgan.
- 3) Muallifning ushbu mashhur g'azalidan keltirilgan baytda ohorli yangi yil tilaklari izhor etilgan:
Ilohi, har kuning navro'z bo'lsun,
Hamisha tole'ying feruz bo'lsun.
- 4) Uning hikoyatlaridan birida adolatli shohning 20 bora haj qilgan zohiddan bitta qilgan hajining savobini sotib olmoqchi bo'lganligi haqida hikoya qilinadi.

- A) 1, 3, 4
B) 1, 2, 4
C) 2, 3, 4
D) faqat 4

3. (B – 2,5) Ushbu misralar haqidagi to'g'ri ma'lumotni aniqlang.

Shabistonida tug'di bir yangi oy,
Yangi oy yo'qki, mehri olamoroy.

- A) "Farhod va Shirin" dostonidan keltirilgan ushbu misralarda Farhodning tug'ilishi tasvirlangan.

- B) “Farhod va Shirin” dostonidan keltirilgan ushbu misralarda Farhodning qalbida ishq otashi jo bo‘lganligi tasviri keltirilgan.
 C) Ushbu misralar Alisher Navoiyning “Mehr va Suhayl” dostonidan keltirilgan.
 D) Ushbu misralar Xojaning “Miftoh ul-adl” (“Adolat kaliti”) asaridan keltirilgan.

4. (Q – 4,5) “Alpomish” dostonidagi qahramonlar va ularning ta’rifini moslashtiring.

1. Oybarchin	Uning da’vogarlariga uchta shart qo’yishdan maqsadi Ko’kaldoshga ham imkon berish edi. Chunki u eng abjir yigitga turmushga chiqmoqchi edi.
2. Qaldirg‘och	Alpomishni or-nomus uchun kurashishga undagan dovyurak qiz bo‘lganligi uchun akasini yarim yo‘lgacha juzatib qo‘yadi va akasi qaytguncha davlatni adolat bilan boshqaradi.
3. Qorajon	Musulmon bo‘lib uyg‘ongan kundan boshlab Alpomishga yaqin do‘st tutinadi. Doimo uning yonida turishga harakat qiladi.

- A) 1-noto‘g‘ri, 2-to‘g‘ri, 3-to‘g‘ri.
 B) 1-to‘g‘ri, 2-noto‘g‘ri, 3-noto‘g‘ri.
 C) 1-noto‘g‘ri, 2-noto‘g‘ri, 3-to‘g‘ri.
 D) 1-to‘g‘ri, 2-to‘g‘ri, 3-noto‘g‘ri.

5. (Q – 4,5) Alisher Navoiyning “Farhod va Shirin” dostonidan olingan ushbu parchada Xusrav bilan bahsga kirishgan Farhod qanday fikrni ifodalagan?

Dedikim: – Dilbaringning de sifotin!

Dedi: – Til g‘ayratidin tutmon otin!

- A) Dilbarning qanday sifatlarga ega ekanligini aytib tugata olmayman.
 B) Tilimdan ham rashk qilib, yorimning otini aytmayman.
 C) Yorim mingan otning jilovini tutishga-da g‘ayratim yetmas.
 D) Dilbarimning sifatlarini aytishga menda majol yo‘q, kuchim yetarli emas.

6. (Q – 4,5) Alisher Navoiyning “Farhod va Shirin” dostonidan keltirilgan ushbu parchada chaqaloqqa Farhod ismi qo‘yilganligini qaysi badiiy san’at orqali izohlagan?

Qo‘yib yuz himmatu iqbol-u davlat,

Hamul far soyasidin topdi ziynat.

“Himmat”dan “h”, “iqbol”dan “alif” (uni “i” deb ham, “o” deb ham, “a” deb ham ishlatish mumkin), “davlat”dan “d”ni olib, qo‘shsak, “hod” paydo bo‘ladi,

buni “far”ning “soyasi”, ya’ni keyiniga olsak, “Farhod” so‘zi hosil bo‘ladi.

A) tashbeh va tovushlar takrori (alletiratsiya) orqali

B) tajohil-u orifona (bilib turib bilmaslikka olish)

C) kitobot san’ati orqali

D) irsoli masal (masal keltirish) orqali

7. (Q – 4,5) Ushbu bayt hamda ajratib ko‘rsatilgan so‘z haqidagi to‘g‘ri fikrni aniqlang.

Ochildi bog‘ida bir otashin vard,

Demaykim **vard**, balkim shu’layi dard.

A) Ajratilgan so‘zning ma’nosi – tariqat. Mazmuni: Farhod tariqat orqali haqiqiy mahbub – o‘z Yaratuvchisi tomon intilishi, bu yo‘ldagi mashaqqatlari ramziy va ma’johiy shaklda tasvirlangan.

B) Ajratilgan so‘zning ma’nosi – ishq. Mazmuni: davron Farhod qalbiga ishqni shunday joyladiki, go‘yo hajr azobidan Farhodning qalbi atirgul kabi qip-qizil qon yanglig‘ bo‘ldi.

C) Ajratilgan so‘zning ma’nosi – atirgul. Mazmuni: Shirin atirgulga qiyoslangani, uning hajridan azob chekayotgan Farhod bag‘ri esa qizil atirgul kabi qon ekanligi aytilmoqda.

D) Ajratilgan so‘zning ma’nosi – atirgul. Mazmuni: bog‘da bir alvon atirgul ochildi, atirgul demaki, u bir dard shu’lasi edi. Ya’ni, atirgul deyilganda Farhod nazarda tutilmoqda.

8. (Q – 4,5) Ushbu bayt hamda ajratib ko‘rsatilgan so‘z haqidagi to‘g‘ri fikrni aniqlang.

Ulki, jondin **kechadur**, sham’i visolingni ko‘rub.

Vah na xush vaqt-u na xush soat na oson **kechadur**.

A) Ushbu bayt Xoja qalamiga mansub bo‘lib, g‘azal Zahiriddin Boburga yuborilgan. Boburga she’r ma’qul bo‘lganligi haqida Xojaning o‘g‘li Nisoriy yozib qoldirgan. Ajratilgan so‘z: “voz kechmoq”, “gunohini kechmoq” ma’nolarida qo‘llangan.

B) Ushbu bayt Xojaning “Gulzor” asaridan olingan bo‘lib, asardagi har bir hikoyatdan keyin, xulosa o‘rnida hikoyat mazmunini jamlagan bayt keltirilgan. Ajratilgan so‘zning ma’nosi – “kechib o‘tmoq”, “kech tushmoq”.

C) Ushbu bayt Xoja gazalidan keltirilgan bo‘lib, ajratilgan so‘zning ma’nosi – “quyosh nuri”. Baytda go‘zallikda tengsiz ma’shuqaning yuzi nur taratib turgan quyoshga, oshiqning yuzi esa kechaga qiyoslangan.

D) Ushbu bayt Xojaning “Miftoh ul-adl” asaridan olingan bo‘lib, asardagi har bir hikoyatdan keyin, asar mazmuniga mos fard keltirilgan. Ajratilgan so‘zning ma’nosi – “yulduzsiz zim-ziyo tun”.

9. (Q – 4,5) Ogahiyning “Taviz ul-oshiqin” asari haqida to‘g‘ri fikr keltirilgan qatorni aniqlang.

A) Ushbu asarni Munis boshlab qo‘ygan bo‘lib, uni Ogahiy davom ettirgan.

Asarda tarixiy voqealar haqida ma’lumot berilgan.

B) Bu asar adabiyotimiz tarixidagi siyosiy-didaktik lirikaning yorqin namunasi hisoblanadi.

C) “Ta’viz ul-oshiqin” – “Oshiqlar tumori” degani. Devon ma’rifatparvar shoh va shoir Feruz – Muhammad Rahimxon Soniy (ikkinchi)ning taklifi va talabi bilan tuzilgan.

D) Ushbu asar Ogahiyning siyosat va davlatga munosabati, hukmdor fazilatlari va burch-vazifalari borasidagi mulohazalari bayon etilgan pandnoma asardir.

10. (Mulohaza) Xoja ijodiga mansub ushbu parcha haqidagi to‘g‘ri mulohazani aniqlang.

Podshoh aydi: – Ey zohid, bir yo‘li qilg‘on hajingning savobini bizga soturmisan?

Zohid aydi: – Ey podshohim, bir haj na bo‘lg‘ay, 20 hajimning savobini sizga berayin, siz bir soat adl qilg‘onning savobini manga bering...

A) Har narsani pul bilan o‘lchovchi zohid hatto haj savoblarini ham sotmoqchi edi.

B) Mansabparast zohid 20 haj evaziga shohning taxtiga o‘tirmoqni ixtiyor qildi.

C) Podshoh yo‘l mashaqqatlaridan cho‘chigani sababli o‘zi haj ziyoratiga bormay turib, boshqalardan zo‘rlik bilan bo‘lsa ham savob sotib olish niyatida edi.

D) Zohid podshohga adolat bilan yurtni boshqarish qanchalik katta savob ekanligini anglatdi.